



№ 0410-3500

2022 - yil " 17 " 12

## MA'LUMOTNOMA

Berildi ushbu ma'lumotnoma ped. fan. fals. dok. (PhD), dots. v.b. Kambarova Saodat Irkinovnaga shu haqdakim, u Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IL-402I04474 raqamli "Bolalar adabiyoti.uz" multimediyali elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda jamoatchilik asosida ishtirok etdi. Rejada unga bolalar adabiyotining yetuk mutaxassisi professor S.Matchonovning sohadagi ilmiy faoliyatini yoritish, ijodkor haqidagi materiallarni to'plash vazifasi yuklatilgan. S.Kambarova loyiha doirasida Safo Matchonovning ilmiy-ijodiy faoliyatiga doir barcha ma'lumotlar: maqola, kitob, film va eshittirishlarni to'pladi. Xususan, "Bolalar adabiyoti", "Bolalar adabiyotidan saboqlar", Tursunboy Adashboyevga bag'ishlangan "Ikki el ardog'ida", Nosir Fozilov haqidagi "Bolaligini poshsholikka yo'ygan adib" kabi o'quv qo'llanma, uslubiy-ijodiy izlanishlar; "Bolalar adabiyoti: san'atmi yo tarbiya?", "Uslubiy rang-baranglik va ijodiy individuallik", X.To'xtaboyev haqida "Jahongashta adib" kabi maqolalar, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlari, jumladan, "Bolalar adabiyotining jonkuyari" ([https://t.me/bagdod\\_xabarлари](https://t.me/bagdod_xabarлари)), nt\_nurafshon\_xabarлари\_17\_05\_2022\_19\_00 O'rta Chirchiq tumani. O'qituvchining mahorati, "Navoiyni anglash yo'lida" mavzusidagi ilmiy-metodik konferensiya. @hududtv, 5-oktabr O'zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir tavallud topgan kun. "O'zbekiston-24" radiokanali Fm 87.9da "Bugun" dasturi. @DurdonaDilshod)dan elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratishda foydalanilgan.

S.Kambarova tomonidan olimning bolalar adabiyotiga doir ijod yo'liga bag'ishlab tayyorlangan "Safo Matchonov haqida" nomli maqolasi ovozashtirilib, audio holida You Tube kanaliga joylashtirilgan. Audiomaterial bilan <https://youtu.be/fFrzWf34UNs> havolasi orqali tanishish mumkin. Shuningdek, loyihada S.Kambarovanning bolalar adabiyotini o'qitish masalasiga bag'ishlangan "Adabiy ta'limda zamonaviylik: tajriba va motivatsiya" (Toshkent: Nodirabegim, 2021) uslubiy qo'llanmasidagi adiblar hayotini o'rganishga doir tavsiya va g'oyalardan foydalanilgan.

Loyiha rahbari



f.f.d., dots. X.Hamroqulova

003011